

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**
International online conference.

Date: 29th April-2025

**INGLIZ TILINI O'RGANISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING O'RNI
VA SAMARADORLIGI**

Nizomiddinova Yulduz

Respublika musiqa va san'at texnikumi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, uni amaliyatga tatbiq etish usullari va o'quvchilar til kompetensiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. An'anaviy va kommunikativ metodlar solishtiriladi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, kommunikativ yondashuv, til kompetensiyasi, metodika, interaktiv dars, CLT (Communicative Language Teaching)

Kirish

Globalizatsiya jarayonida ingliz tilining xalqaro aloqa vositasi sifatidagi o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda bu tilni o'rganish va o'rgatish jarayonida an'anaviy grammatik-oqituv metodlarining o'rniga, kommunikativ yondashuv keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv o'quvchining to'g'ri va faol muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

CLT metodikasi 1970-yillarda rivojlanan boshlagan bo'lib, u tilni o'rganishni muloqot qilish vositasi sifatida qaraydi. Bu metodda asosiy urg'u real hayotdagi vaziyatlarda muloqot qilishga, fikr almashish, so'ralgan javoblarni to'g'ri topishga qaratiladi. Til faqat grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki ijtimoiy vositadir.

An'anaviy yondashuvda ko'proq grammatika va tarjima mashqlariga e'tibor qaratiladi. Biroq kommunikativ yondashuvda so'zlashuv amaliyoti, rolli o'yinlar, dialoglar, guruhda ishslash kabi interaktiv usullar asosiy rolni o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, CLT usuli bilan o'qitilgan talabalar tilni faol va ishonchliroq ishlata olishadi.

Zamonaviy raqamli vositalar (mobil ilovalar, interaktiv platformalar, onlayn suhabatlar, chatGPT kabi AI vositalar) yordamida kommunikativ metodni kuchaytirish mumkin. Bu orqali o'quvchilar sinfdan tashqarida ham til muhitida muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, darsda kommunikativ metoddan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning nutq faolligi, lisoniy ishonchi, tinglab tushunish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshadi. Jumladan, o'zbek ta'lim muassasalarida olib borilgan eksperimentlar bu usulning samaradorligini isbotlaydi.

Xulosa

Kommunikativ yondashuv – bu zamonaviy til o'rgatishda samarali metodlardan biridir. Tilni amalda ishlatishga yo'naltirilgan, interaktiv, talabaning shaxsiy ishtirokiga asoslangan bu yondashuv ingliz tilini o'rgatishda yuqori natijalar beradi. Kelajakda CLT usulini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali til o'rgatish sifatini yanada oshirish mumkin.



**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.
International online conference.**

Date: 29th April-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education, 2007.
3. Littlewood, W. *Communicative Language Teaching*. Cambridge University Press, 1981.
4. Celce-Murcia, M. *Teaching English as a Second or Foreign Language*. Heinle & Heinle, 2001.
5. Djalolov, J. *Ingliz tilini o‘qitish metodikasi*. Toshkent, 2021.

